

## O‘Quvchilarning Intelektual Qobilyatlarini Shakllantirish Ijtimoiy Pedagogik Muammo Sifatida

*Mamatov Mashrab<sup>1</sup>*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada o‘quvchilarning intelektual qobilaytlarini shakllantirish ijtimoiy pedagogik muammo sifatida tadqiq etilgan. Intelektual qobilyatni shakllantirish va rivojlantirishda musiqa fanining ahamiyati tahlil etilgan.

**Kalit so‘z:** intelekt, qobilyat, ijtimoiy muammo, pedagogik muammo, musiqa fani.

Bugungi kunda ta’lim tizimi intelektual qobilaytlari rivojlangan yosh avlodni shakllantirishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘yan. *Intellekt* (lot. bilish, tushunish, idrok qilish) – insonning aqliy qobilyati. Hayotni, atrof-muhitni ongda aynan aks ettirish va o‘zlashtirish, fikrlash, o‘qish-o‘rganish, dunyoni bilish va ijtimoiy tajribani qabul qilish qobilyati; Intelekt tarkibiga idrok qilish, xotirlash, fikr yuritish, so‘zlash va h.k. psixik jarayonlar kiradi[1]. *Qobilyat* – insonning individual salohiyati, imkoniyatlari. Qobilyat bilimdan keskin farqlanadi, bilim mutolaa natijasi hisoblanadi, qobilyat shaxsning psixologik va fiziologik tuzilishining xususiyati sanaladi. Qobilyatning yetakchi xususiyatlaridan biri – narsahodisalar mohiyatini ijodiy tasavvur qilishdir [2].

O‘quvchilarda xalq milliy cholg‘ulari vositasida ijodkorlik qobilyati shakllantiriladi. *Ijodkorlik qobilyati* – insonning ijodiy qarorlar qabul qilish, tushunish, qabul qilish va tubdan yangi g‘oyalarni yaratish qobilyati. Shuningdek, aqliy qobilyatiga ham kuchli ta’sir ko‘rsatib, o‘quvchida yodlab qolish, tahlil qilish, analiz va sintez qilish, xulosalash kabi bir qator jarayonlarni shakillantiradi va rivojlantiradi. Umumta’lim maktablarida o‘quvchilarning aqliy va ijodiy qobilaytlarini shakllantirishda xizmat qiluvchi xalq milliy cholg‘ularini o‘rgatish va o‘qitishga oid metodik nazariyalarni ishlab chiqish bugungi ta’lim tizimimiz uchun dolzarb sanaladi. Bu esa tadqiqotning dolzarbligini belgilovchi asosiy omillardan sanaladi.

Tadqiqot mavzusining o‘rganilganlik asosini falsafa, pedagogika va psixologiya, fiziologiya, musiqashunoslik sohalaridagi ishlar tashkil etadi, xususan jahonda:

- musiqa san’atining shaxs shakllanishidagi o‘rni haqidagi eng muhim qoidalar Suqrot, Platon, Aristotel, Pifagor, Y.A.Komenskiy, K.D.Ushinskiy, A.L.Gotsdiner, V.V.Medushevskiy, E.V.Nazaykinskiy, G.S.Tarasov va boshqalar tomonidan ilgari surilgan;
- Y.K.Babanskiy, I.Ya.Lerner, M.N.Skatkin, V.A.Slastenin va boshqalar tomonidan belgilab berilgan psixologiya-pedagogika fanining nazariy tamoyillari; shaxsning ma’naviy kamolotida san’atning o‘rni haqidagi ta’limot (Yu.V. Borev, M.S.Kagan);
- G.L.Troshin, L.S.Vygotskiy, V.I.Lubovskiy, J.I.Shif va boshqalar tomonidan sog‘lom bolalar va rivojlanishda nuqsoni bo‘lgan bolalarning aqliy rivojlanishida kontseptual qoidalar;
- Musiqaning aqliy rivojlanishga psixologik-pedagogik ta’sirini ochib beruvchi tadqiqotlar (L.B.Baryeva, N.L.Belopolskaya, N.Yu.Boryakova, T.A.Vlasova, T.V.Egorova, E.A.Ekjanova, T.N.Nyazeva, L.V.Kuznetsova, I.Y.Y.Kuznetsova, R.I.Lalaeva, K.S.Lebedinskaya, I.F.Markovskaya, N.A.Nikashina, V.B.Nikishina, M.S.Pevzner, E.S.Slepovich, U.V.Ulenkova, N.A.Tsypina, E.V.Shamarina, S.G.Shevchenko va boshqalar);

<sup>1</sup> Respublika musiqa va san’at kolleji katta o‘qituvchisi, Qori Niyoziy nomidagi PFITI mustaqil izlanuvchisi



- Musiqiy pedagogika va musiqiy psixologiya sohasidagi ilmiy tushunchalar (E.B.Abdullin, B.V.Asafiev, O.A.Apraksina, L.G.Archajnikova, Yu.B.Aliev, L.A.Barenboim, N.A.Vetlugina, D.B.Kabalevskiy, T.A.Kolysheva, E.D.Kritskaya, E.D.Kritskaya, O.P.Rapatskaya, B.M. Shkolyar va boshqalar).

Tadqiqot mavzusining o‘rganilganlik asosini falsafa, pedagogika va psixologiya, fiziologiya, musiqashunoslik sohalaridagi ishlar tashkil etadi, xususan jahonda:

- musiqa san’atining shaxs shakllanishidagi o‘rni haqidagi eng muhim qoidalar Suqrot, Platon, Aristotel, Pifagor, Y.A.Komenskiy, K.D.Ushinskiy, A.L.Gotsdiner, V.V.Medushevskiy, E.V.Nazaykinskiy, G.S.Tarasov va boshqalar tomonidan ilgari surilgan;
- Y.K.Babanskiy, I.Ya.Lerner, M.N.Skatkin, V.A.Slastenin va boshqalar tomonidan belgilab berilgan psixologiya-pedagogika fanining nazariy tamoyillari; shaxsning ma’naviy kamolotida san’atning o‘rni haqidagi ta’limot (Yu.V. Borev, M.S.Kagan);
- G.L.Troshin, L.S.Vygotskiy, V.I.Lubovskiy, J.I.Shif va boshqalar tomonidan sog‘lom bolalar va rivojlanishda nuqsoni bo‘lgan bolalarning aqliy rivojlanishida kontseptual qoidalar;
- Musiqaning aqliy rivojlanishga psixologik-pedagogik ta’sirini ochib beruvchi tadqiqotlar (L.B.Baryaeva, N.L.Belopolskaya, N.Yu.Boryakova, T.A.Vlasova, T.V.Egorova, E.A.Ekjanova, T.N.Nyazeva, L.V.Kuznetsova, I.Y.Y.Kuznetsova, R.I.Lalaeva, K.S.Lebedinskaya, I.F.Markovskaya, N.A.Nikashina, V.B.Nikishina, M.S.Pevzner, E.S.Slepovich, U.V.Ulenkova, N.A.Tsypina, E.V.Shamarina, S.G.Shevchenko va boshqalar);
- Musiqiy pedagogika va musiqiy psixologiya sohasidagi ilmiy tushunchalar (E.B.Abdullin, B.V.Asafiev, O.A.Apraksina, L.G.Archajnikova, Yu.B.Aliev, L.A.Barenboim, N.A.Vetlugina, D.B.Kabalevskiy, T.A.Kolysheva, E.D.Kritskaya, E.D.Kritskaya, O.P.Rapatskaya, B.M. Shkolyar va boshqalar).
- Ma’lumki, yosh avlod tarbiyasi har doim ham muhim va dolzarb ahamiyatga ega bo‘lib kelgan. Biroq biz yashayotgan XXI asrda bu masala chin ma’noda dolzarblik kasb etmoqda. Shuning uchun ham mamlakatimizda ijtimoiy-pedagogik muammoga aylangan bu masalaga “jismonan sog‘lom, ruhan va aqlan rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, Vatanga sodiq, qat’iy hayotiy nuqtayi nazarga ega yoshlarni tarbiyalash” [3] bilangina yechim topish mumkinligi ta’kidlanmoqda.

Intelektlar kurashi ketayotgan bir davrda O‘zbekiston ham ta’lim tizimida intelektual yetuk yoshlarni shakllantiruvchi yo‘nalishlarga alohida e’tibor qaratmoqda. Jumladan, musiqa ta’limi orqali o‘quvchilarning qobiliyatlarini aniqlash, ularning aqliy rivojlanishiga ta’sirini ilmiy tajriba-sinovlar orqali bilib olishga qaratilgan tadqiqotlarning yaratilayotgani ham bunga yaqqol misol bo‘la oladi. Markaziy Osiyoda psixologiya, pedagogika va musiqashunoslikka oid tadqiqotlar tarkibida musiqaning bola intelektual qobiliyatiga ta’siri yoritilgan. Masalan, Abu Nasr Farobiy “Musiqa haqida katta kitob”, Abu Ali ibn Sino “Kitob ash shifo” (ushbu kitobda musiqaga oid maxsus bo‘limi bor), “Tib qonunlari”, Al-Xorazmiy “Bilimlar kaliti”, Sayfuddin Urmoviy “Oliyjanoblik haqida kitob”, “Sharafiya kitobi”, Abduraxmon Jomiy “Musiqa haqida risola”, Abduqodir Marog‘iy “Musiqa ilmida ohanglar to‘plami”, Najmiddin Kavkabiy Buxoriy “Risolai musiqiy”, “Risoliyi dar bayoni Duvozdax maqom”, Al-Xusayniy “Konuniy ilmiy va amaliy musiqiy”, Muhammad Nishopuriy “Musiqa – ilmi haqida kitob”, Boqiy Namniy “Zamzamai vaxdat”, Alisher Navoiy “Mahbub ul-qulub”, “Majolis ul-nafois”, Darveshali Changiy “Tuxfat us-surur”, “Risolayi musiqiy” kabi asarlarda tadqiqotimiz mavzusiga oid qarashlar mavjud. Shuningdek, Abdurauf Fitrat “O‘zbek klassik musiqasi va uning tarixi” asarida musiqaning inson ruhiyatiga va uning aqliy qobiliyatiga ta’sirini bayon qilgan. Bugungi kunda Q.Mamirov “Musiqa vositasida yoshlarni axloqiy-estetik ma’naviyat ruhida tarbiyalash”, O.Soipov “Shaxsni shakllantirishda musiqaning o‘rni va ahamiyati”, S.Karimov “Bolalar musiqiy idrokini shakllantirishda psixologik yondashuvlarning o‘rni”, D.Karimova “Musiqa o‘qitishning pedagogik tashxisi va metodlari” kabi maqolalarida; Sh.Abdullayevning “Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini xalq musiqa san’ati orqali axloqiy tarbiyalashni shakllantirish”, K.Xudaybaxshovning



“Milliy musiqa ohanglarining inson ruhiyatiga ta’siri” nomli magistrlik dissertatsiyalari musiqaning inson ruhiyatiga, ma’naviyatiga ta’siri tadqiq qilgan .

Aglashiladiki, o‘quvchilarning intelektual qobilyatlarini shakllantirish ijtimoiy pedagogik muammo sifatida bugun ta’lim tizimida dolzarblik kasb etmoqda. Bunda har bir soha o‘z imkoniyatidan kelib chiqib, tavsiyalar bermoqda, xususan, musiqa fani orqali milliy tafakkurni shakllantirish hamda o‘quvchining kognitiv rivojlanishiga milliy cholg‘ular bilan shug‘ullanish orqali ta’sir ko‘rsatish masalasi tadqiqotlar asosini tashkil etmoqda. Shunday ekan, ijtimoiy-pedagogik muammoga aylangan ushbu masalaga yondashish har bir pedagog zimmasiga tushmoqda.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. V жилд, Ўзбекистон миллий энциклопедияси: Тошкент, 2008. – Б. 216.
2. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. V жилд, Ўзбекистон миллий энциклопедияси: Тошкент, 2008. – Б. 318.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasining yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar startegiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son Farmoni // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017. 6-son, 70-modda, 20-son, 354-modda.
4. Shayxonova X. Intelektual salohiyat – taraqqiyot mezoni. – Toshkent: O‘zbekiston, 2011. – B. 112.
5. Nishonova S. Komil inson tarbiyasi. – Toshkent: Istiqlol, 2003. – B. 224.

